



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



15-16-MAY
2026-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Adaptiv ta'lim muhitida talaba tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki muammoni tahlil qiluvchi, algoritm tuzuvchi, kod yozuvchi, xatolarini anglaydigan va o'z o'quv faoliyatini mustaqil boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Shu bois adaptiv ta'lim texnologiyalarini algoritmlash va dasturlash fanlariga joriy etish talabalarning algoritmik tafakkuri, mustaqil fikrlashi, dasturlash ko'nikmalari va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hooshyar D., Pedaste M., Yang Y., Malva L., Hwang G.-J., Wang M., Lim H., Delev D. From gaming to computational thinking: An adaptive educational computer game-based learning approach // Journal of Educational Computing Research. — 2021. — Vol. 59(3). — P. 383–409.
2. Fernández-Morante C., Cebreiro B., Casal L., Mareque M. Adaptive Learning Supported by Learning Analytics for Student Teachers' Personalized Training during In-Service Teacher Education // Sustainability. — 2021. — Vol. 14(1). — Article 124.
3. Du Plooy E., Casteleijn D., Franzsen D. Personalized adaptive learning in higher education: A scoping review of key characteristics and impact on academic performance and engagement // Heliyon. — 2024. — Vol. 10.
4. Mamabolo K. E. Learning analytics in computer programming education: A bibliometric scoping review // Interdisciplinary Journal of Education Research. — 2025.
5. AI in Computational Thinking Education in Higher Education: A Systematic Review. — 2025.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DIDAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

P.f.d. (DSc), professor v.b. Ruzikulova Nigora Shuxratovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

nigoraruzikulovaphd@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, pedagogik yondashuvlar shaxsning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratadi, ta'limiy muhitning rivojlanishi va tashkil etilishini ta'minlaydi. Eng ko'p uchraydigan holat shuki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kelgusi kasbiy faoliyatida bir emas, balki bir qator yondashuvlardan foydalanadi va o'z-o'zidan ayonki, ular bir-birini to'ldirishi va bir-birini istisno qilmasligi shart.

Kalitso'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, didaktik tayyorgarlik, yondashuv, integrativ yondashuv.

“O'qitishga yondashuv” atamasining ko'pma'noliligini bir qator olimlar ta'kidlaydilar. Masalan, olim I.A.Zimnyayaning hisoblashicha, “yondashuv”, ta'lim subyektlarining ijtimoiy ustanoqlarini aks ettiradigan dunyoqarash kategoriyasi; ta'lim jarayonining barcha komponentlari, avvalambor, pedagogik jarayon subyektlarining o'zaro faoliyatlarini tizimli tashkil etish va ularning o'z faoliyatini

mustaqil tashkil etishidir [12].

Ilmiy adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar asosida umumlashtirib aytish mumkinki, ta'limda yondashuv - bu ta'limning dominant g'oyasi bo'lib, u ta'lim oluvchilarning ijtimoiy tajriba orttirish va ularning shaxsini atrofdagi voqelik subyekt sifatida rivojlantirish shakllari, metodlari va usullari to'plamidir.

Ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu maqolada integrativ yondashuv umumpedagogik yondashuv sifatida tadqiq etilgan. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga didaktik tayyorgarligini takomillashtirishda integrativlikning mavjud "didaktik" va "xususiy" darajalari barobarida "metodologik" va "umumpedagogik" darajalarda nazariya va amaliyotning miqdoriy nisbati muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan konsensusni belgilash masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Ta'limda integrativ yondashuv, integratsiyalashgan o'qitish nazariyasi, metodologiyasi B.S.Abdullaeva [1], R.Fogarty [2], S.Hughes [4], H.Jacobs [5], N.A.Kayumova [6], Le.Trung Hieu, Nguyen Danh Nam [7] va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Integratsiya – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirishdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatish [3; 122–123-b.]. Shunga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga didaktik tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ yondashuv maqsad, mazmun, yondashuvlar, tamoyillar, didaktik ta'minot, o'zaro maqsadli bog'lanishlarini ko'zda tutadi. Demak, integrativlikni tegishli tarkibiy qismlarning ierarxik aloqasini o'rnatishga, o'zaro bog'liqlik holatini belgilaydigan jarayon sifatida tavsiflash mumkin.

Bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yaxlit, yagona tushunchalarni yaratish jarayoni sifatida integratsiya - bu xosil qilinadigan bilimlarni bir butunga birlashishi [11] hisoblanib, shunga ko'ra integratsiya o'z o'rnida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga didaktik tayyorgarligini takomillashtirishda integratsiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtiradigan bilimlari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'zlashtiradigan bilimlari o'rtasidagi umumiylikni anglatadi.

Ta'limda integratsiya masalalari turli jihatlaridan kelib chiqib o'rganilgan. Ushbu maqolada integratsiya umumpedagogik yondashuv sifatida o'rganilgan.

Ta'limda yondashuv insonga nafaqat jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ijtimoiy tizimga «moslashish», shu bilan birga barcha sohalarida mustaqil, ijodiy harakat qilish (faoliyat yuritish) imkonini beradi. Xususan, ta'limda yondashuvning maqsadga muvofiq tanlanishi o'z o'rnida ta'lim mazmuniga sezilarni ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim mazmuni o'zida ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda o'zlashtiriladigan kompetensiyalarni ko'zda tutib, ularni o'zlashtirish asosida o'quvchilarni barcha hayotiy faoliyatlarga tayyorlashdir.

O'qitishni tashkil etishga integrativ yondashuv turli o'quv fanlarida o'rganiladigan, umumlashgan bilishga oid vazifalarni ilgari surishdagi jarayonlar va hodisalarning ko'p qirraliligidagi umumiylikni aniqlashga yordam beradi. Bunda o'qitishga integrativ yondashuv o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi faoliyatining

tayanchiga aylanadi, o'z mantiqiy madaniyatini – mavhumlashtirishning yuqori darajasida umumlashtirish, sintezlash, aniqlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish ehtiyojini tug'diradi [12]. Fanga tegishli har qanday qismlar va elementlarning yaxlit birlikda birlashishi integratsiyani namoyon qiladi.

Didaktik yondashuv sifatida integratsiyada uning metodologik mohiyatini belgilovchi ikkita yo'nalish ajratiladi: umumilmiy tizimlilik g'oyasini amalga oshirish; bilishning dialektik g'oyasini amalga oshirish.

Integratsiya bilishda umumilmiy g'oyalar va metodlar, fanlarning o'zaro bog'lanishida yangi yondashuvlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Gnoseologiya bilishning: obyektiv olamning rivojlanishi va o'zaro aloqadorligida jarayonlari va hodisalarini o'rganishda dialektik metodining asosiy talablarini belgilaydi [12]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativlik boshlang'ich ta'lim (shuningdek, maktabgacha ta'lim va tayanch ta'lim bosqichi) va oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda integrativ mazmun kasb etishga xizmat qiluvchi kontentni ta'minlash, shunga ko'ra jarayoni tashkil etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga didaktik tayyorgarligi bilimlar va ko'nikmalarni yangi vaziyatga samarali transformatsiya qilishga tayyorgarligini ham o'z ichiga oladi. Bilimlar va ko'nikmalarni yangi vaziyatga samarali transformatsiya qilishga tayyorgarlik integrativ mexanizmlarni va mazmuni anglash asosida amalga oshiriladi.

Bir qator tadqiqotlarda [8, 10, 13, 14] o'qituvchining kasbiy xususiyatlari integrativ xususiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy xususiyatlari integrativligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: muayyan shaxsiy sifatlar to'plami (shaxsiy komponent), o'qitayotgan fani bo'yicha bilim va ko'nikmalar (kasbiy kontentli komponent), psixologik va pedagogik bilimlar (psixologik-pedagogik komponent), kasbiy-individual rivojlanishga intilishi (motivatsion komponent), o'z faoliyatini tahlil qila olish (refleksiv komponent).

Xulosa qilib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga didaktik tayyorgarligini takomillashtirish integrativ yondashuvga asoslangan ta'lim nisbatan mustaqil qismlar orasidagi muhim bog'lanishlarni jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini hamda ular kasbiy faoliyatini olib boruvchi ta'lim bo'g'ida – boshlang'ich ta'limda o'qitish mazmunini belgilovchi konsensusni ta'minlash, ushbu bosqichlarga tegishli bilimlarni unifikatsiya qilish, tizimlashtirish, maqbullashtirish, umumlashtirilgan bilimlarni shakllantirish, yaxlit tafakkur va ongni rivojlantirishni o'zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): ped. fan. dokt. diss. avtoref. –T.: 2006. – 49 b.
2. Fogarty R. The mindful school: How to integrate the curricula. Palatine, IL: Skyline. 1991

3. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., *Pedagogika fanidan izohli lug'at.* – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. – 480 b.
 4. Hughes, S. *The webbing way: Integrating the curriculum through writing.* Winnipeg, Canada: Peguis Publishers. 1994
 5. Jacobs H. *Interdisciplinary curriculum: design and implementation.* Alexandria, VA: ASCD. 1998
 6. Kayumova N.A. *Elektron ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida tayyorlash metodikasini takomillashtirish.* *Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.* Toshkent – 2022. 306 b.
 7. Le Trung Hieu, Nguyen Danh Nam. *The teacher's competence of integrated teaching at primary school science.* *International Annual Meeting on STEM Education (I AM STEM) 2018.* IOP Publishing. IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 1340 (2019) 012023. doi:10.1088/1742-6596/1340/1/012023
 8. Загуменных, К.Э. *Педагогические условия формирования основ профессионализма учителя безопасности жизнедеятельности: дис.... канд. пед. наук: 13.00.08 / Загуменных Кирилл Эрнстович.* - Курск, 2007. - 227 с.
 9. Зимняя, И.А. *Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании [Текст]: материалы к 1 -му заседанию метод, семинара 20 мая 2004 г. / И.А. Зимняя.* – Моек Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов-2004 с.
 10. Макаренкова, Т.Ю. *Педагогическая мастерская как фактор совершенствования профессионализма учителя: дисс.... канд. пед. наук: 13.00.08 / Макаренкова Татьяна Юрьевна.* - М., 2009. - 208 с.
 11. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. *Толковый словарь русского языка/ Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В.Виноградова.* - 4-е изд., доп. —М.: Азбуковник, 1997. -С. 3-5. -944 с. <https://ru.wikipedia>.
 12. Самсиков С. А. *Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.* Рязань: 2000 г. 215 с.
 13. Судариков, Д.В. *Управление становлением профессионализма учителя в условиях модернизации образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Судариков Денис Валентинович.* - Томск, 2010. - 24 с.
- Чуватова, Н.Е. *Педагогические ценности как основа профессионализма личности учителя: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Чуватова Надежда Евгеньевна.* - Саранск,

**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN THE
MODULAR STRUCTURE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHING
PLATFORM BASED ON COGNITIVE AND CONSTRUCTIVIST
APPROACHES (GENERATIVE AI, NLP)**

**Turakulov Olim Xolbutayevich, p.f.d., (DS), O'zMU Jizzax filiali, Kompyuter
ilmlari va dasturlashtirish kafedراسи professori**